



O'ZBEK MUHOJIRLIGI TARIXIDA XORAZMLIKLARNING TUTGAN O'RNI. XX ASR

Karimov Nodirbek Kenja o'g'li

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7583317>

ARTICLE INFO

Received: 18th January 2023

Accepted: 29th January 2023

Online: 30th January 2023

KEY WORDS

Xorazm muhojirlari, Said Abdullaxon, migratsiya, yangi xivaliklar va h.k.z

ABSTRACT

Ushbu maqolada Xorazm muhojirlari haqida so'z boradi. Ya'ni Xiva xonligi davrida xonlik hududidan badarg'a qilingan yoki o'z xohishi bilan muhojirlikni irod qilgan tarixiy shaxslar hayotiga biroz nazar tashlaymiz. Xiva xonligidagi aslzoda shaxslarning muhojirligi haqidagi tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilishimiz mumkin.

XX asr Xiva xonligi tarixiga nazar tashlasak, bu davrda muhojirlikni irod qilgan bir qancha tarixiy shaxslar hayotiga guvoh bo'lamiz. Shulardan biri xonlik xonadonidan bo'lgan Said Abdullaxon siymosi edi. Said Abdullaxon ukasi Asfandiyorxon suiqasd natijasida o'ldirilgach, Junaidxon tomonidan Xivaga xon qilib ko'tarilgan (1918-yil 3 oktabr). Said Abdullaxon jismoniy jihatdan zaif va irodasiz bo'lib, Xiva xonligidagi barcha ishlarni amalda yasovulboshi Davlatmurod maxram orqali Junaidxon boshqargan. Junaidxon o'z kishilari: Choriqboy (Toshhrvuz), Safar Depmechi (Ilyali), Qilich Qora (Porsu), Goklan bola (Mang'it), Anna Geldibek (Taxta), Xalil Maxsum (Urganch), Shixim Sulg'un (Xiva)larni hokim qilib tayinlagan.

Xiva xonligi qizil askarlar tomonidan bosib olingach, S.A. taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi (1920-yil 2 fevral) va iltimosiga kura, u Xivada qoldirilgan. Biroq, Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasida qozikalon Ibrohim Oxun boshchiligida bo'lgan ulamolarning qizil askarlarga qarshi ko'targan isyoni (1920-yil 23 iyun) dan keyin, bu isyonga hech qanday aloqasi bo'lmasa ham S.A. va uning harami, yaqin qarindoshlari, 10 to'ra hamda Hikmatilla Oxun (qoziaskar), Obid Oxun va boshqa Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR)dan badarg'a qilingan. Dastlab Moskvadagi Lubyanka — 2; Novospassk, Ivanovo monastirlaridagi qamoqxonalarga tashlangan. Xon va uning oilasi ustidan mahkama 1920 yilning 12 iyunida boshlandi. Hukmga ko'ra, Said Abdullaxon va uning taxtni egallashi mumkin bo'lgan erkak qarindoshlari Xorazm Xalq Sovet Respublikasidan chiqarib yuborildi. Bundan tashqari, barcha mol-mulklari – pul, zargarlik buyumlari, uy-joy, yer va xonga qarashli insonlarning ham mulki musodara qilindi. Said Abdullaxondan tashqari uning uch o'g'li, ukasi va to'rt jiyani quvg'inga hukm qilindi. Grigoriy Guseynovga surgun to'g'risida xonning Ukrainada istiqomat qilgan jiyani Abdurasul Madiyarov gapirib bergan. Avval deportatsiya qilinganlar Xivadan Toshkentga olib borildi va u yerdan qo'riqchilar bilan ta'minlangan poyezdda Samara shahriga jo'natildi. Keyin ularni Moskva viloyatiga o'tkazib, lagerlarda saqlashdi. 1922 yilning



12 fevralida mahbuslar, shu jumladan Said Abdullaxon ham kutilmaganda ozod qilindi. Ular Ukrainadagi Verxovsevo stansiyasi yaqinidagi qishloqqa joylashib, u yerda guberniya politsiyasining otxonasida ishladi. Bir necha oydan keyin ularni Krivoy Rogdagi «Bolshevik» koniga ishga o'tkazishdi va oilaning barcha a'zosi kon kazarmalariga joylashtirildi. Ba'zilarini, shu jumladan xonni ham ishlatishdi – u shaxtada tungi qorovul bo'lib ishga qabul qilindi. U yerda Said Abdullaxonga «Xon» laqabi berildi. Biroq, ko'pchilik ular bilan ishlab yurgan bu odam Xorazm davlatining haqiqiy hukmdori ekanini anglamasdi. Xivalik muhojirlarning yoshroqlari yer osti ishlarida konchi sifatida ishlay boshladi. Ularning barchasi oxir-oqibat o'z oilalarini qurdi. Xorazmdan esa tarqab ketgan xon oilasi ochlik va kambag'allik chegarasida yashayotgani, sadaqa yoki qo'shnilarning yordami bilan kun ko'rayotgani haqidagi mash'um xabarlar etib kelardi. Bu haqda bilgan surgundagilar 1925 yilning iyul oyida GPUning Krivoy Rogdagi bo'limiga, SNK USSR va Butunukraina Markaziy ijroiya qo'mitasiga o'z uyiga, Xorazmga qaytishlariga ruxsat berishlarini iltimos qilib murojaat qildi. Ukraina GPUsi Moskvaga materiallarni yubordi, ammo u yerdan xonning oilasini vataniga qaytarish «ommaga ta'sir qilishi mumkinligi» sababli rad javobi berildi. 30-yillarning boshlarida Ukraina SSRda ommaviy ocharchilik boshlandi. Keksa Said Abdullaxon dizenteriya bilan kasallanib, kondagi shifoxonaga yotqizildi. Oradan bir oy o'tgach, Xivaning so'nggi xoni bo'lmish Sayyid Abdullaxon uzoq davom etgan kasallik va to'yib ovqatlanmaslik natijasida vafot etdi. Ukraina golodomori (ocharchiligi) qurbonlaridan biri bo'lgan Xorazm hukmdori, konga dafn qilindi. Uning qabri joylashgan yer vaqt o'tishi bilan yo'qolib bordi va hanuzgacha noma'lum bo'lib qolmoqda. Xonning yaqin qarindoshlarining hayoti esa bundan ham fojiali kechdi. Uning akasi Muhammadyor surgun qilingan paytdayoq allaqachon 70 yoshli kekxa odam edi. U ishlay olmadi va ommaviy ochlik boshlanganidan keyin tilanchilik qilishga majbur bo'ldi. Kichik ukasi – Ibodulloh bolaligidan kar edi va u hayoti davomida deyarli ishlamadi. U asosan kon atrofidagi mahalliy bozorda tilanchilik qildi va bir kuni tasodifan yuk mashinasi bosib ketishi oqibatida halok bo'ldi. 1933 yilda, xon vafot etganidan so'ng, surgundagilarga nihoyat O'rta Osiyoga qaytishga yoki SSSRning boshqa mintaqalariga joylashishga ijozat berdi. Said Abdullaxonning o'g'illari – Rahmatulla va Yusuf Yoqublar Toshkentga ko'chib o'tdi, u yerda ba'zi qarindoshlari yashar edi. Said Abdullaxonning akasi Muhammadyor ham vataniga qaytishga qaror qildi. U 1936 yilda Toshkentda vafot etdi. Xonning yana bir o'g'li bo'lmish Said Abdulla ukrainalik rafiqasi bilan urushdan oldin O'zbekistonga ko'chib o'tib, bu yerda tarjimon bo'lib, keyinchalik esa geolog razvedkachi bo'lib ishladi. 1941 yilda u bir kishini mashinada urib yubordi va besh yilga surgunga hukm qilindi. Xonning o'g'li 1960 yillarning boshlarida vafot etdi. Sovet davrida barcha surgundagilarga har qanday joyda yashashga ruxsat berilgan, ammo Xivaga qaytish taqiqlangan. Oila qurib, ish boshlagan xonning ba'zi qarindoshlari Krivoy Rogda qolgan.

Yana bir bunday tarixiy shaxslardan biri yosh xivaliklar namoyondasi Polvonniyoz Hoji Yusupovdir. Xorazmda jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, Yosh xivaliklar partiyasining asoschisi, davlat arbobi. Xiva xonligi hududidagi jadidchilik harakatida faol qatnashgan. Asfandiyorxonning jadidlarga qarshi siyosati natijasida Yu. 1917-yil oxiridan boshlab 2 yil davomida Toshkentda yashagan. Bolsheviklar ta'siridagi Yosh xivaliklar inqilobiy qo'mitasi raisi (1918-yil boshidan). Turkiston ASSR Milliy ishlar xalq komissarligida Turkman sho'basasi boshlig'i (1919). Xiva xonligi ag'darilgach (1920-yil 1-fevral), yangi tashkil



qilingan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar Sho'rosining birinchi raisi (1920-yil 27-aprel — 1921-yil 6-mart).Yusupov XXSR hukumati raisi sifatida mustaqil siyosat yuritish va Xorazm Respublikasida demokratik islohotlarni qaror toptirish uchun intilgan. Biroq Turkiston komissiyasi (Turkkomissiya) va Turkiston fronti qo'mondonligi Yu.ning bu siyosatiga qarshi chiqib, Xivada yangi hukumat to'ntarishini amalga oshirishgan. Yusupov faol siyosiy kurashdan voz kechganligi uchun keyinchalik bolsheviklar tomonidan afv qilingan va XXSRda turli lavozimlarda xizmat qilgan.Keyinchalik uning hayoti ham Sovet hukumati ta'qibi ostida bo'ladi va bu hol uni boshqa muhojirlar vaziyatiga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bu davrda Xorazm xalqi muhojirligi oldingi davrlarga nisbatan ortgan.Bunga asosiy sabab Xiva xonligining mustamlakaga aylanishi va Chor Rossiyasi keyinchalik Sovet davlati tomonidan o'tkazilgan tazyiqlar edi.

References:

1. Matkarimov M., Xorazm Respublikasi: davlat tuzilishi, nozirlari va iqtisodi, Urganch, 1993
2. Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul, Feruz. Shoh va shoir qismati, 1 kitob, T., 1991
3. Xudoyberganov K., Xiva xonlari shajarasi, Xiva, 1996
4. Xorazm tarixi, 2j., Urganch, 1997